

## MAMLAKATNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONA FOYDASI VA UNI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI

**Abdug'aniyeva Zulxumor Alijon qizi**

TDTU Qo'qon filiali Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi  
2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11650038>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakat va korxonada miqyosida modernizatsiyalash, qaytadan tashkil etish, jahon bozoriga sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan kirib borish kerakligi bo'yicha fikrlar yuritilgan. Texnika-texnologiyalar sohasidagi muhim o'zgarishlarni amalga tadbiq etish, ta'lim, kadrlar sifati bo'yicha ham mamlakatimizda olib borilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan fikrlar va takliflar xususida yozilgan.*

***Tayanch so'zlar:** ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, mehnat taqsimoti, qo'shimcha mahsulot, modernizatsiyalash, korxonada, texnika va texnologiyalar, jahon bozori, kadrlar malakasi, standartlashtirilgan mahsulotlar.*

### WAYS TO MAXIMIZE ENTERPRISE PROFIT IN THE MODERNIZATION OF THE COUNTRY

***Abstract.** This article discusses the need to modernize, reorganize, enter the world market with quality and competitive products at the level of the country and the enterprise. It is written about the implementation of important changes in the field of technical technologies, education, and the quality of personnel in our country.*

***Key words:** production specialization, division of labor, additional product, modernization, enterprise, techniques and technologies, world market, personnel qualification, standardized products.*

### ПУТИ МАКСИМИЗАЦИИ ПРИБЫЛИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ СТРАНЫ

***Аннотация.** В данной статье рассматривается необходимость модернизации, реорганизации, выхода на мировой рынок с качественной и конкурентоспособной продукцией на уровне страны и предприятия. Написано о реализации важных изменений в сфере технических технологий, образования, качества кадров в нашей стране.*

***Ключевые слова:** специализация производства, разделение труда, дополнительная продукция, модернизация, предприятие, техника и технологии, мировой рынок, квалификация персонала, стандартизированная продукция.*

### KIRISH

**Modernizatsiya, modernizatsiyalash** (fransuzchadan moderne — „eng yangi“, „zamonaviy“) — biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish.

Mamlakatni modernizatsiyalashda mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi. Eng zamonaviy, butun dunyo tan olgan va jahon standartlariga mos keluvchi texnika, ilm fan, xizmat ko'rsatish va boshqalarni mamlakat miqyosida yangilash bu modernizatsiyalash demakdir[1]. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham 2016-yil 15-dekabr kuni bo'lib o'tgan Oliy majlis

palatalarining qo'shma majlisida ham modernizatsiyalash, jamiyatni, mamlakat iqtisodiyotini isloh qilishga alohida to'xtalib, bu bo'yicha tegishli vazifalarni belgilab berdi[2]. Shu vazifa va ko'rsatmalar asosida mamlakatimizda islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Modernizatsiyalash barcha sohalarda amalga oshiriladigan jarayonlardan biridir va bu jarayon zamon talabi hisoblanadi. Ishlab chiqarish sohasida ham modernizatsiyalash doimo kerak bo'lib keladi. Chunki ushbu sohada ham raqobat muhiti keng miqyosda shakllangan. Shuning uchun ham korxonalar raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan raqobatchilardan bir qadam oldinda yurishga harakat qilishadi.

### **ASOSIY QISM**

Ishlab chiqarish jarayonida tovar va xizmatlar yaratishga sarflanadigan barcha omillardan samarali foydalanish, korxonalar harajatlarini qisqartirib, foydasini maksimallashtirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalarni ham bunga moslashtirish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish, jahon standartlariga muvofiq ravishda ishlashni yo'lga qo'yish kerak.

Uzoq muddatli davr – bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini va barcha band bo'lgan resurslari miqdorini o'zgartirish uchun yetarli bo'lgan davrdir[3]. Ishlab chiqarish rivojlanib borishi uchun ishlab chiqarishni o'rtacha xarajatlari kamayishi lozim, unga quyidagi omillar ta'sir qilib boradi:

1. Mehnatning ixtisoslashuvi
2. Boshqaruv xodimlarining ixtisoslashuvi
3. Kapitaldan samarali foydalanishi
4. Qo'shimcha turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarilishi[4].

Vaqt o'tishi bilan firmaning mahsulot birligi ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishiga olib kelishi mumkin. Firmalar faoliyati yiriklashib, kengayib borish, firmaning faoliyatini samarali nazorat qilish va muvofiqlashtirishga harakat qilish va uni boshqarishda qiyinchiliklarni kamaytirib chiqaradi.

O'rtacha hajmdagi korxonada bitta yagona boshqaruvchi uning faoliyatiga doir barcha muhim qarorlarni shaxsan o'zi qabul qiladi, shu boshqaruvchi barcha ishlab chiqarish jarayonini tezlik bilan tahlil qilishi, ular asosida aniq va samarali qaror chiqara oladi. Firma miqyosini kengayishi bilan bunday holat o'zgaradi. Buning natijasida ma'muriy xodimlar va ishlab chiqarish jarayonini alohidalashtiruvchi boshqaruv qatlamlari ko'payib boradi, yuqori rahbariyat korxonadagi haqiqiy ishlab chiqarish jarayonidan alohidalashib qoladi. Yirik korxonada miqyosida oqilona qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni yig'ish, tushunish va qayta ishlash bir kishi uchun imkon darajasidan tashqarida bo'ladi. Boshqaruv apparatining chuqurlashuvi va kengayishi esa axborot almashishuvi, qarorlarni muvofiqlashtirishdagi muammolarni hamda byurokratik holatni keltirib chiqaradi, boshqaruvning turli bo'g'inlari tomonidan qabul qilingan qarorlar bir-biriga zid kelish ehtimoli kuchayadi. Natijada samaradorlikka putur yetib, ishlab chiqarishning o'rtacha xarajatlarni oshiradi[5]. Ya'ni boshqaruv hodimlarining ko'payishi korxonada uchun doimiy harajatlarni ham ortishiga olib keladi.

Mamlakatda ham korxonada ham modernizatsiyalash qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik samarali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga erishiladi. Yaratilayotgan mahsulotlar sifati ham

oshadi, tannarxi pasayadi, jahon standartlariga muvofiq bo'ladi va dunyo bozorida o'z o'rniga ega bo'lib boradi.

### **Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida mavjud korxonalar daromadi qanday o'zgaradi?**

#### **Kichik biznes, kichik korxonalar:**

*Ustunligi*- kapital sig'imi kichikligi uchun tez moslashuvchan bo'ladi. Yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarishga, uni yo'lga qo'yishga qiyinchilik kam bo'ladi.

*Kamchiliklari*- kichik korxonalar kapitalini yangilash, zamon talabiga mos uskunalarga almashtirishga har doim ham yetarli imkoniyati bo'lmaydi.

#### **Yirik korxonalar miqyosida:**

*Ustunligi*- korxonani kengaytirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni, yangi yo'nalish bo'yicha chet eldan mutaxassis olib kelishga imkoniyatlari ko'proq.

*Kamchiliklari*- tez moslashuvchan bo'lmaydi, yangi mahsulot ishlab chiqarish uchun unga korxonani moslashtirish uchun vaqt ko'proq sarflanadi.

### **YECHIM VA TAKLIFLAR**

Mamlakatni modernizatsiyalash o'zi bilan ko'plab sohalarni ham rivojlantiradi.

Modernizatsiyalash uchun ham boshqa sohalar rivojlanishi zarur. Misol uchun ta'lim tizimini keltirish mumkin. Mamlakatda yangi texnologiyalar yaratilishi, raqamlashtirish rivojlanishi uchun unga mos kadrlar, mutaxassislar yaratilishi lozim. Lekin ta'limga kiritilayotgan investitsiyalar uzoqroq muddat talab qiladi[6]. Ushbu muddatgacha esa rivojlangan sohalardagi mutahasislarni chetdan jalb qilinishiga to'g'ri keladi. Mamlakatlar bilan kadrlar bo'yicha almashinuvlar, ta'limni amaliyotga tadbiiq etishni rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, siyosiy, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish kerak. Modernizatsiyalash sharoitiga mamlakatdagi mavjud korxonalar moslashuvchan bo'lishi, doimiy izlanishda va marketing sohasini doim rivojlantirib borish, dunyo standartlarini o'rganib borish kerak.

#### **Korxonalar foydasini maksimalashtirish yo'llari:**

1. Korxonalar faoliyati yangiliklarga moslashuvchan bo'lishi kerak.
2. Doimiy kadrlar salohiyatini oshirib borish kompaniyalar bilan hamkorliklar yaxshi yo'lga qo'yilishi kerak.
3. Yangi texnologiyalarni, sohalarni rivojlantirish, yangi turdagi mahsulotlarga aholida talabni shakllantirish marketing sohasini yaxshilash.
4. Yaratilayotgan mahsulotlar va xizmatlar jahon standartlariga muvofiq bo'lishi, texnologiyalar, innovatsiyalar va loyihalarni hamda kadrlarni qanchalik tez zamon talabiga moslashtira olsa, shu korxonalar yoki firmaning daromadi mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida ham mos ravishda o'sib boradi.

### **XULOSA**

Modernizatsiyalash ya'ni dunyo standartlariga javob berish, texnika texnologiyalar bo'yicha zamon bilan hamnafas yurish har bir mamlakat uchun zarur hisoblanadi. Buning uchun avvalo ta'lim tizimini rivojlantirish, robotatexnika, nanotexnologiya, raqamlashtirish sohaslariga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Shundagina mavjud resurslardan ham samarali foydalanish, ishlab chiqarishda, korxonalarda harajatlar qisqarishi, sifatli, qulayligi, funksiyalari ko'p bo'lgan tovar va mahsulotlar ishlab chiqarishga erishish mumkin. Kadrlar sifati ham yaxshilanishi, keyinchalik esa

chet elga qora mehnat uchun emas balki yaxshi mutahasis bo'lib ishlash uchun mehnat eksportiga ham erishiladi. Bundan tashqari o'zimizda ham yangi sohalar va yangi ish o'rinlari yaratiladi.

#### **REFERENCES**

1. [https://tb.urdu.uz/kafedra/attach/fandocs/37193\\_Mikroiqtisodiyot%20fan%20dasturi\(Iqtisod-raqamli%20iqtisod\).pdf](https://tb.urdu.uz/kafedra/attach/fandocs/37193_Mikroiqtisodiyot%20fan%20dasturi(Iqtisod-raqamli%20iqtisod).pdf)
2. <https://kun.uz/78234430?q=%2Fuz%2F78234430>
3. <https://itm.uz/files/books/uz/2.2mamlakatni-modernizatsiyalash-2qism.pdf>
4. <http://fayllar.org/mamlakatni-modernizatsiyalash-sharoitida-korxonafoydasi-va-unv6.html?page=4>
5. Iqtisodiyot nazariyasi” Umarov I. Raxbar.T.Universitet 2002 y. 7-13-boblar
6. N.Beknazarov “Iqtisodiy nazariyasi”. T.2005 2-bob.
7. O‘lmasov A. “Iqtisodiyot nazariyasi” T 2001 y 2-3 boblar.
8. Iqtisodiy bilim asoslari\_9. E.Sariqov,B. Xaydarov